

**BOSHLANGICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA O'YINLARDAN FOYDALANISH****Rasulova Feruza Umarquliyevna***Buxoro viloyat Qorako'l tumani 32-Umumiy o'rta ta'llim maktab  
Boshlang'ich ta'llim o'qituvchisi*

**Kirish.** Keng ko'lamlı islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lism tizimida ham o'zining yangiliklarini namoyish etmoqda. hozirgi vaqtida innovatsiya tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. "Innovatsiya" inglizcha so'z bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni tizim ichki tuzulishini o'zgartirish deb ta'riflanadi.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'llimda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o'qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg'usini his qiladi. Ko'rganini va o'qiganini qayta hikoyalash ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungikun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi.

Bu borada "Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" singari metodlar bilan bir qatorda "O'zim tekshiraman", "Bo'lishi mumkin emas", "Ortiqchasini top", "Juftini top" singari didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

"Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" metodlarida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin.

**«Men o'zimni namoyon qilaman».** Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o'quvchilar o'zlarini eng yaxshi tomondan ko'rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo'lgan o'quvchi mantiqiy, izchil va oqilonan ravishda o'z fikrlarini ifoda eta oladi, o'quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiyyadabiyot va xalq og'zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi.

**«So'zlarni taqqoslash».** Bunda o'quvchilarga har xil ma'noga ega bo'lgan ikkita so'zni (qazilma va ko'pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. O'quvchilarining vazifasi ushbu so'zlarning o'zaro bog'liqligiga imkon qadar ko'proq misollar keltirishdir.

**«Nostandart vaziyatlarni taklif qilish».** Bu matn bilan ishlashda o'quvchilarni kutilmagansavollarga javob berish so'raladi:

Odamlar boshlarida yurishni boshlasalar nima bo'ladi?

Agar sut jo'mrakdan oqib chiqsa nima bo'ladi? va hakozo

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarini mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini hosil qilishda o'qituvchining roli katta. bunda har bir o'qituvchining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangi pedagogik texnologiyaning

innovatsion usullaridan dars jarayonida o'rini foydalanish va o'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga erishishdir. **"Tafakkur buluti" metodi.** Ushbu metod "klasster" metodining bir shakli hisoblanib, o'quvchilarda ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.
  1. Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatlari o'yinlar; aralash turdag'i o'yinlar.
  2. Shakliga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari.

**"Qarmoq"** o'yini: Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog'ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg'ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarining uchiga ip va ipning uchiga magnit bo'lakchasi bog'lab qo'yiladi. Boshlang'ich sinf matematika darslari uchun juda ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Matematikadan sanoqqa doir ba'zi didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin.

1-guruh. Birinchi o'nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: "Buyumlarni 10 gacha sanash", «To'g'ri va teskari sanash», « Ikkini qo'shish va ayrish».

2-guruh. Son tarkibini mustahkamlovich o'yinlar: «4 soni va raqami», "Teatr", "Nima o'zgardi?". «Norvoncha», «Zanjircha».

3-guruh. O'nlikdan o'tib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: «Ketgan kim?» va x.k.

4-guruh. Bir necha birlikka kamaytirish va orttirish, masalasini yechish malakalarini mustahkalovchi o'yinlar: «Topchi, qancha?» va x.k.

1-guruh bo'yicha "Buyumlarni 10 gacha sanash" ga doir didaktik o'yin: "Jimjitlik". Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. O'yin topshirig'i: aniq buyumlarni "xayolda" sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko'rsatish. O'yinning borishi: o'quvchi boshlovchilik vazifasini bajaradi.

O'qituvchi:

- Bolalar, "Jimjitlik" o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko'rsataman. Siz ularning sonini topishingiz kerak bo'ladi. Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.- Yo'q

bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo'l ko'tarish kerak. O'qituvchi bolalarga doira va cho'plarni sanatadi.

- Endi men sizlarga narsalarni ko'rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo'lganini barmoqlaringiz bilan ko'rsatasiz.O'qituvchi 4 ta qo'g'irchoqni ko'rsatganda bolalarning hammasi 4 ta barmog'ini ko'rsatadi. Sinfda jumjilik. Bolalarning butun diqqatibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.O'qituvchi:

- Barakalla hammangiz to'g'ri hisobladningiz. Endi men sanoq cho'pni bir qolimdan ikkinchi qolimga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo'lganini ko'rsatasiz.Bolalar o'qituvchining harakatlarini kuzatib sanashadi va 10 ta barmog'ini ko'rsatishadi.

O'qituvchi: - Endi kvadratlarni sananglar,- deydida, taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo'yadi. Bolalar sanashadi va 6 ta barmog'ini ko'rsatishadi.Bu o'rinda bolalarning birinchi o'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmay, "Xayolda" sanash ko'nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jum o'tirishni talab etuvchi o'yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e'tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo'ladi. Keyingi darsda o'yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkonii tug'iladi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim – ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollilikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsiyal xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'immoqdamiz.

O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKT'dan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida AKT'ni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash

uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'naliшини rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyati bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi.

AKT'dan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihamalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llammalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'irlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differensiatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejallashtirishni ishlab chiqishda rejallashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruqli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmalarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKT'dan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-

sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

«Tabiatshunoslik» fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O'lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O'rmon va dalalar – tabiat boyligi», «Qishloq xo'jaligi sohalari», «Bizning o'lka», «Yer osti boyliklari», «O'lkamiz hududiy tuzilishi», «O'lka chorvachiligi va o'simliklari» va boshqalar. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta'lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar.

Barcha o'quv fanlarida qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o'lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKT'dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi – axborotliligi, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Maktabda mavjud bo'lgan Internet tarmog'i ishimizda katta yordam ko'rsatadi. Internet – bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkonini paydo bo'ladi.

O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamонавиъ axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan:

matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob- kitobli o'yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin.

Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lif olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinni foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan "Sanashni o'rganamiz", "Alifbo saboqlari", "Aljabr", "5x5" , kabi elektron dasturlar o'zining qiziqarliligi, o'quvchilar yoshiga mosligi, foydalanish uchun soddaligi, intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir. "Sanashni o'rganamiz" - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan elektron o'quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari 4 amalni bajarish ko'nikmasini hosil qilish bilan birgalikda kompyutering "sichqoncha" qurilmasidan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi.

"Aljabr" - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali o'quvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qo'shish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni o'rganadilar. Dastur o'quvchiga og'zaki misol yechishning avtomatik darajada o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi"da turli janrdagi badiiy va ilmiy- ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'ektiv mazmun va sub'ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishslashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqelar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho

berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilami asaming g'oyaviy yo'naliishini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Boshlang`ich sinflarda o`tiladigan ona tili, matematika, o`qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta'lif tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'lifiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta'lif darslariga o`quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang`ich sinflardanoq « dars » degan muqaddas so`zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o`qituvchilar turli didaktik o`yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lif jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari- norasmiy bahs- munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish,o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishslash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

**Xulosa.** O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy faol xarakter«ijodiy maydoni» ga ega bo'ladi. O'yin - bu faoliyat, jarayon va o'qitish metodidir. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy,ta'lif faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O'yinlarga bir necha misollar keltirish mumkin: «zinapoya», «izohli lug'at»,«rolli o'yinlar», «6x6 metodi», «fikrlar hujmi», «aqliy hujum» va h.k.Ta'limda didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jondili bilan mashq qiladilar, materialni yaxshi o`zlashtiradilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lif konstepsiyasi. Boshlang'ich ta'lif. 1998. 6 -son, -12 - 24 betlar.
- 2.Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinoebova L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
- 3.Azizzxo'jaeva N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. - 23 - 48 bet.
4. Abdieva D. Soros bilan hamkorlik - yutuqlar kaliti. Boshlang'ich ta'lif. 2003. 2-son, 17- 22 bet.
5. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lif. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
6. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O'qituvchi», 2008. - 112 bet.